

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MEHNATSEVARLIK FAZILATINING MAZMUNI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI

Alisherova Raxnamo Odiljon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

E-mail: alisherovarahnomo1@gmail.com

Ilmiy rahbar: Olimova Dilrabo Nurali qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining mazmun-mohiyati, uning shaxs rivojlanishidagi o'rni hamda pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Maktabgacha yosh davri bolalarda mehnatga ijobiy munosabat, mustaqillik, mas'uliyatlilik va topshiriqlarni bajarishga bo'lgan intilish kabi sifatarni shakllantirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Tadqiqotda mehnatsevarlik fazilatining nazariy asoslari pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili orqali yoritildi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari umumlashtirildi. Tadqiqot natijalari bolalarda mehnatsevarlik fazilatining shakllanishida oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorligi, bolalarning yosh xususiyatlariga mos mehnat faoliyatlarini tashkil etish hamda tarbiyachining rag'batlantiruvchi yondashuvi muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, mehnat faoliyatiga muntazam jalb etilgan bolalarda mustaqillik, mas'uliyat va topshiriqlarni oxirigacha bajarish ko'nikmalari yuqori darajada rivojlanishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: mehnatsevarlik, mehnat tarbiyasi, maktabgacha yosh, pedagogik ahamiyat, shaxs rivojlanishi, mustaqillik, mas'uliyatlilik, maktabgacha ta'lim.

CONTENT AND PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE VIRTUE OF WORK IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. This article analyzes the essence of industriousness in preschool children, its role in personality development, and its pedagogical significance. Preschool age is considered an important stage in the formation of positive attitudes toward work, independence, responsibility, and willingness to complete assigned tasks. The study examines the theoretical foundations of industriousness through the analysis of pedagogical and psychological literature and summarizes the results of a survey conducted among preschool educators. The findings indicate that cooperation between the family and preschool educational institutions, the organization of age-appropriate work activities, and the encouraging approach of educators are important factors in developing industriousness in children. Furthermore, it was found that children who are regularly involved in work-related activities demonstrate higher levels of independence, responsibility, and the ability to complete tasks successfully.

Keywords: industriousness, labor education, preschool age, pedagogical significance, personality development, independence, responsibility, preschool education.

СОДЕРЖАНИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДОБРОДЕТЕЛИ В РАБОТЕ С ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В данной статье анализируются сущность трудолюбия у детей дошкольного возраста, его роль в развитии личности и педагогическое значение. Дошкольный возраст является важным этапом формирования положительного отношения к труду, самостоятельности, ответственности и стремления выполнять порученные задания. В исследовании теоретические основы трудолюбия раскрываются посредством анализа педагогической и психологической литературы, а также обобщаются результаты анкетирования, проведённого среди воспитателей дошкольных образовательных организаций. Результаты исследования показали, что важными факторами формирования трудолюбия у детей являются сотрудничество семьи и дошкольной образовательной организации, организация трудовой деятельности с учётом возрастных особенностей детей, а также стимулирующий подход воспитателя. Кроме того, установлено, что у детей, систематически вовлечённых в трудовую деятельность, более высоко развиваются самостоятельность, ответственность и навыки доведения начатого дела до конца.

Ключевые слова: трудолюбие, трудовое воспитание, дошкольный возраст, педагогическое значение, развитие личности, самостоятельность, ответственность, дошкольное образование.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mehnatsevar, mas'uliyatli va tashabbuskor shaxslarni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Insonning mehnatga bo'lgan munosabati, mehnat faoliyatini qadrlashi va unga mas'uliyat bilan yondashishi ilk bolalik davridan shakllana boshlaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tizimida bolalarda mehnatsevarlik fazilatini rivojlantirish pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, aynan ushbu davrda unda atrof-muhitga munosabat, axloqiy me'yorlar, xulq-atvor odatlari hamda mehnat faoliyatiga nisbatan dastlabki tasavvurlar vujudga keladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalik davrida shakllangan ijobiy sifatlar keyingi yosh bosqichlarida shaxs rivojlanishining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan mehnatsevarlik fazilatini maktabgacha yoshdan boshlab shakllantirish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Mehnatsevarlik shaxsning mehnat faoliyatiga ongli munosabati, topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajarishi, qiyinchiliklarni yenga olishi hamda boshlangan ishni oxiriga yetkazishga intilishi bilan tavsiflanadi. Mazkur fazilat bolaning nafaqat mehnat ko'nikmalarini egallashiga, balki mustaqillik, intizomlilik, sabr-toqat va javobgarlik kabi ijobiy sifatlarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shuning uchun ham mehnat tarbiyasi maktabgacha ta'lim mazmunining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Pedagogika va psixologiya fanlarida mehnat tarbiyasi hamda mehnatsevarlik fazilatining shakllanishi masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, L.S. Vygotskiy bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va faoliyatning muhim o'rin tutishini asoslab bergan. A.N. Leontyev shaxs rivojlanishini faoliyat bilan bog'liq holda izohlab, bolaning turli faoliyat turlarida ishtirok etishi uning shaxsiy sifatleri shakllanishiga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. V.A. Suxomlinskiy esa mehnatni bolalar tarbiyasining muhim vositasi sifatida baholab, mehnat jarayonida bolaning axloqiy va irodaviy sifatleri rivojlanishini qayd etgan.

METODOLOGIYA

Maktabgacha ta'limga oid zamonaviy tadqiqotlarda bolalarni yosh va individual xususiyatlariga mos mehnat faoliyatlariga jalb etish, ularda mehnatga qiziqish va ijobiy motivatsiyani shakllantirish muhim pedagogik shart sifatida ko'rsatiladi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida mehnat tarbiyasining umumiy jihatlari yoritilgan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining mazmuni va pedagogik ahamiyatini zamonaviy ta'lim talablari asosida tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining mazmunini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish, uning pedagogik ahamiyatini aniqlash hamda ushbu fazilatni samarali shakllantirish omillarini yoritishdan iborat. Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining mazmuni va pedagogik ahamiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik

asosini maktabgacha ta'lim, mehnat tarbiyasi, shaxs rivojlanishi hamda faoliyat nazariyasiga oid ilmiy manbalar tashkil etdi. Tadqiqot davomida mehnatsevarlik fazilatining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari va bolalar rivojlanishidagi ahamiyatini yorituvchi pedagogik hamda psixologik adabiyotlar tahlil qilindi [1].

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va o'quv-metodik manbalar o'rganildi hamda tadqiqotning nazariy asoslari shakllantirildi. Ikkinchi bosqichda empirik ma'lumotlar yig'ildi. Uchinchi bosqichda olingan natijalar tahlil qilinib, umumlashtirildi va ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Empirik tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan 20 nafar tarbiyachi ishtirok etdi. Respondentlar mehnat tarbiyasi jarayonini bevosita tashkil etuvchi mutaxassislar sifatida tanlandi. So'rovnoma 5 ta asosiy savoldan iborat bo'lib, unda bolalarda mehnatsevarlik fazilatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar, qo'llanilayotgan pedagogik usullar, mehnat faoliyatining samarali shakllari hamda amaliyotda uchraydigan muammolar aniqlashtirildi. Tadqiqotda pedagogik kuzatish usuli ham qo'llanildi. Kuzatish jarayonida bolalarning o'z-o'ziga xizmat qilish faoliyati, navbatchilik vazifalarini bajarishi, o'yinchoqlar va o'quv vositalarini tartibga keltirishi, tabiat burchagidagi o'simliklarni parvarish qilishi hamda jamoaviy mehnat topshiriqlaridagi ishtiroki tahlil qilindi [2]. Mehnatsevarlik fazilatini baholashda bir qator mezonlardan foydalanildi. Jumladan, topshiriqni mustaqil bajarish darajasi, boshlangan ishni yakunlashga intilish, mehnat faoliyatiga qiziqish, jamoa bilan hamkorlikda ishlash hamda topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Ushbu mezonlar orqali bolalarda mehnatsevarlik fazilatining namoyon bo'lish darajasi baholandi.

NATIJALAR

Olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi. So'rovnoma natijalari foiz ko'rsatkichlari asosida qayta ishlanib, jadval ko'rinishida umumlashtirildi. Tahlil natijalari mehnatsevarlik fazilatining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni

aniqlash hamda ularning pedagogik ahamiyatini baholash imkonini berdi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining mazmuni va uning namoyon bo'lish shakllari haqidagi fikrlari o'rganildi. Shuningdek, mehnatsevarlik fazilatining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, bolalarning mustaqil faoliyat darajasi, samarali mehnat faoliyatlari hamda amaliyotda uchraydigan muammolar yuzasidan ma'lumotlar to'plandi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

NATIJALAR

Tadqiqot doirasida Namangan viloyati Mingbuloq tumani maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan 20 nafar tarbiyachi ishtirokida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma bolalarda mehnatsevarlik fazilatini shakllantirishga doir tarbiyachilarning fikr-mulohazalarini aniqlashga qaratildi. Olingan natijalar quyidagi jadvallarda keltirildi va tahlil qilindi.

1-jadval

Tarbiyachilarning bolalarda mehnatsevarlik fazilatini shakllantirishga oid fikrlari (n=20)

Ko'rsatkichlar	Respondentlar soni (nafar)	Ulushi (%)
1. Mehnatsevarlikning asosiy namoyon bo'lish shakli		
Topshiriqni oxirigacha bajarish	7	35
Jamoad hamkorlik qilish	6	30
Mehnatga qiziqish bildirish	4	20
Mustaqil ishlash	3	15
2. Mehnatsevarlik fazilatiga ta'sir etuvchi omillar		
Oila	7	35
Maktabgacha ta'lim muhiti	6	30
Tarbiyachi	4	20
Ommaviy axborot vositalari (OAV)	3	15
3. Bolalarning topshiriqlarni mustaqil bajarish darajasi		
Yuqori daraja	8	40
O'rta daraja	8	40
Past daraja	4	20
4. Mehnatsevarlikni shakllantirishda samarali faoliyat turlari		
Jamoaviy mehnat topshiriqlari	7	35
O'simliklarni parvarishlash	6	30
Stol tayyorlash	4	20
Navbatchilik	3	15
5. Mehnatsevarlikni shakllantirishda uchraydigan muammolar		
Ota-onalar e'tiborining sustligi	8	40
Individual yondashuvning yetishmasligi	8	40
Bolalarda qiziqishning yetarli emasligi	4	20

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, tarbiyachilarning fikricha mehnatsevarlik fazilati eng avvalo topshiriqni oxirigacha bajarish (35%) va jamoada hamkorlik qilish (30%) orqali namoyon bo'ladi. Mehnatga qiziqish bildirish 20 %, mustaqil ishlash esa 15 % respondentlar tomonidan asosiy ko'rsatkich sifatida e'tirof etilgan. Mehnatsevarlik fazilatiga ta'sir etuvchi omillar orasida oila (35%) va maktabgacha ta'lim muhiti (30%) yetakchi o'rinni egalladi. Tarbiyachi ta'siri 20 %, OAV ta'siri 15 % deb baholandi. Bolalarning topshiriqlarni mustaqil bajarish darajasi bo'yicha 40 % yuqori, 40 % o'rta, 20 % past darajada ekanini aniqlandi. Mehnatsevarlikni shakllantirishda eng samarali faoliyat turlari sifatida jamoaviy mehnat topshiriqlari (35%) va o'simliklarni parvarishlash (30%) ko'rsatildi. Asosiy muammolar sifatida esa ota-onalar e'tiborining sustligi (40%) va individual yondashuvning yetishmasligi (40%) qayd etildi.

1-jadval ma'lumotlari tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining mazmuni va uni shakllantirish omillari haqidagi qarashlarini aniqlash imkonini berdi. Natijalarga ko'ra, respondentlarning 35 foizi mehnatsevarlikning asosiy belgisi sifatida topshiriqni oxirigacha bajarishni qayd etgan.

Bu holat bolalarda boshlangan ishni yakunlash ko'nikmasi mehnatsevarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida baholanishini ko'rsatadi. Shuningdek, tarbiyachilarning 30 foizi jamoada hamkorlik qilishni asosiy ko'rsatkich deb hisoblagan. Mazkur natija mehnat faoliyati jarayonida ijtimoiy munosabatlar va hamkorlik ko'nikmalarining ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Mehnatga qiziqish bildirish (20%) va mustaqil ishlash (15%) ko'rsatkichlari ham mehnatsevarlik fazilatining muhim elementlari sifatida e'tirof etildi [3]. Mehnatsevarlik fazilatining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida oila yetakchi o'rinni egallab, respondentlarning 35 foizi ushbu omilni eng muhim deb baholagan. Maktabgacha ta'lim muhiti 30 foiz bilan ikkinchi o'rinni egalladi. Tarbiyachi faoliyati 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, ommaviy axborot vositalarining ta'siri 15 foiz deb qayd etildi. Olingan natijalar bolalarda mehnatsevarlik fazilatining rivojlanishi, avvalo, oiladagi tarbiya va kundalik faoliyat namunalariga bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotida yaratilgan tarbiyaviy muhit ham ushbu sifatning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning topshiriqlarni mustaqil bajarish darajasi bo'yicha olingan ma'lumotlar respondentlarning 40 foizi ushbu ko'rsatkichni yuqori, 40 foizi o'rta, 20 foizi esa past darajada deb baholaganini ko'rsatdi. Mazkur natijalar bolalarning aksariyatida mustaqil faoliyat ko'nikmalari shakllanayotganini, biroq ayrim hollarda ularga qo'shimcha pedagogik yordam va rag'batlantirish zarurligini anglatadi. Mehnatsevarlikni shakllantirishda eng samarali faoliyat turi sifatida jamoaviy mehnat topshiriqlari (35%) hamda o'simliklarni parvarishlash (30%) qayd etildi. Respondentlarning fikricha, mazkur faoliyat turlari bolalarda mas'uliyat hissi, tartiblilik, sabr-toqat va mehnat natijasiga nisbatan qiziqishni rivojlantiradi. Stol tayyorlash (20%) va navbatchilik faoliyati (15%) ham amaliy ahamiyatga ega vositalar sifatida baholandi [5]. So'rovnoma natijalariga ko'ra, bolalarda mehnatsevarlik fazilatini shakllantirish jarayonida ota-onalar e'tiborining sustligi (40%) hamda individual yondashuvning yetishmasligi (40%) asosiy muammolar sifatida qayd etildi. Shuningdek,

respondentlarning 20 foizi bolalarda mehnat faoliyatiga qiziqishning yetarli emasligini muhim muammo deb hisoblagan. Ushbu natijalar maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini yanada kuchaytirish, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining shakllanishi ko'plab omillar ta'sirida yuz berishini ko'rsatdi. Respondentlar oilaning tarbiyaviy ta'sirini birinchi o'ringa qo'ygan bo'lsalar, maktabgacha ta'lim muhiti va tarbiyachi faoliyatining ham muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etdilar. Shuningdek, bolalarda mehnatsevarlikni rivojlantirishda jamoaviy mehnat topshiriqlari hamda tabiat bilan bog'liq amaliy faoliyatlar samarali vosita sifatida e'tirof etildi. Olingan natijalar maktabgacha ta'lim jarayonida mehnat tarbiyasini tizimli tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining shakllanishi, avvalo, oila va ta'lim muassasasi hamkorligiga bog'liqligini ko'rsatdi. Respondentlarning 35 foizi oilani asosiy omil sifatida baholagan. Ushbu natija F.R. Qodirovaning bolada dastlabki mehnat ko'nikmalari va ijtimoiy xulq-atvor namunalarining shakllanishida oilaning ustuvor o'rni mavjudligi haqidagi ilmiy qarashlari bilan mos keladi [3]. Biroq tadqiqotda maktabgacha ta'lim muhiti ham 30 foiz ko'rsatkich bilan yuqori natija qayd etgani zamonaviy sharoitda mehnat tarbiyasi faqat oilaviy ta'sir doirasida emas, balki ta'lim muassasasida tashkil etiladigan maqsadli pedagogik faoliyat orqali ham rivojlanishini ko'rsatadi. Demak, mehnatsevarlik fazilatining shakllanishi oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zaro hamkorligi natijasida yuzaga keladigan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Bizning tadqiqotimizda mehnatsevarlikning asosiy belgisi sifatida topshiriqni oxirigacha bajarish 35 foiz natija bilan birinchi o'rinni egalladi. Mazkur holat bolalarda mas'uliyatlilik va qat'iyatlilik sifatleri mehnatsevarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida

shakllanayotganini ko'rsatadi. Pedagogik tadqiqotlarda ham mehnatsevarlik shaxsning mehnat faoliyatida ishtirok etishi bilangina emas, balki boshlangan ishni sifatli va to'liq yakunlay olish qobiliyati bilan baholanishi ta'kidlanadi [5]. Shu jihatdan qaraganda, olingan natijalar mehnatsevarlikning mazmun-mohiyatini ochib beruvchi nazariy qarashlarni tasdiqlaydi. Jamoada hamkorlik qilishning 30 foiz ko'rsatkich bilan ikkinchi o'rinni egallashi alohida e'tiborga loyiqdir. L.S. Vygotskiy bolaning rivojlanishi ijtimoiy hamkorlik jarayonida sodir bo'lishini ta'kidlaydi [6]. Bizning tadqiqotimiz natijalari ham ushbu nazariy qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqladi. Chunki jamoaviy faoliyat davomida bolalar bir-biriga yordam berish, vazifalarni taqsimlash va umumiy natija uchun mas'uliyat his qilishni o'rganadilar. Natijada mehnatsevarlik nafaqat individual, balki ijtimoiy ahamiyatga ega fazilat sifatida rivojlanadi.

Tadqiqotda jamoaviy mehnat topshiriqlari (35%) hamda o'simliklarni parvarish qilish (30%) bolalarda mehnatsevarlikni rivojlantirishning eng samarali shakllari sifatida baholandi. Ushbu natija tasodifiy emas. Chunki amaliy faoliyat jarayonida bola o'z mehnatining natijasini bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xususan, o'simliklarni muntazam parvarish qilish jarayonida sabr-toqat, mas'uliyat va mehnat natijasiga hurmat hissi rivojlanadi. Poddyakovning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga qiziqish real natija bilan bog'liq faoliyatlarda kuchliroq namoyon bo'ladi [7]. Bizning natijalarimiz ham mazkur ilmiy xulosani tasdiqlaydi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, ota-onalar e'tiborining sustligi va individual yondashuvning yetishmasligi 40 foizdan asosiy muammo sifatida qayd etildi. E'tiborli jihati shundaki, respondentlar bir tomondan oilani mehnatsevarlikni shakllantirishdagi eng muhim omil sifatida baholagan bo'lsalar, ikkinchi tomondan aynan oilaviy tarbiyadagi ayrim kamchiliklarni asosiy muammo sifatida ko'rsatganlar. Bu holat mehnatsevarlik fazilatining shakllanishida oilaning o'rne yuqori bo'lishi bilan birga, mazkur jarayonning sifati ham muhim ekanligini anglatadi. Agar bola oilada muntazam

ravishda mehnat faoliyatiga jalb etilmasa yoki unga mustaqil vazifalar topshirilmasa, mehnatsevarlik sifatining rivojlanishi sekinlashishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining shakllanishi murakkab pedagogik jarayon bo'lib, u oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti va tarbiyachi faoliyatining o'zaro uyg'unligiga bog'liqligini ko'rsatdi. O'tkazilgan so'rovnoma va tahlillar asosida eng muhim omil sifatida oila (35%) yetakchi o'rinni egalladi. Bu holat bolaning dastlabki mehnat ko'nikmalari va ijtimoiy xulq-atvori, avvalo, oilaviy muhitda shakllanishi bilan izohlanadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muhiti (30%) va tarbiyachi faoliyati (20%) ham bolalarda mehnatsevarlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutishi aniqlandi. Bu esa ta'lim jarayonida tashkil etiladigan amaliy faoliyatlar, jumladan navbatchilik, o'yinchoqlarni yig'ishtirish, tabiat burchagidagi ishlar va jamoaviy topshiriqlarning ahamiyatini yanada oshiradi. Tadqiqot davomida mehnatsevarlikning asosiy namoyon bo'lish shakli sifatida topshiriqni oxirigacha bajarish va jamoada hamkorlik qilish ustun ekanligi qayd etildi. Bu esa bolalarda mas'uliyatlilik, qat'iyatlilik va ijtimoiy faollik kabi sifatarning shakllanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqotda ota-onalar e'tiborining sustligi va individual yondashuv yetishmasligi asosiy muammolar sifatida aniqlandi. Bu holat maktabgacha ta'lim tizimida oila bilan hamkorlikni kuchaytirish va har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan pedagogik yondashuvni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, mehnatsevarlik fazilatini shakllantirishda oila va ta'lim muassasasining hamkorligi, tarbiyachining kasbiy mahorati hamda amaliy mehnat faoliyatlarining tizimli tashkil etilishi muhim pedagogik shart hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ushbu yo'nalishda olib boriladigan ishlarni takomillashtirishga ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019.

2. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2013.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.
5. Ushinskiy K.D. Pedagogical Works. – Moscow: Pedagogika, 1990.
6. Poddyakov N.N. Trudovoe vospitanie doshkolnikov. – Moscow: Prosveshchenie, 1985.